

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

O'zbekistonda nomoddiy madaniy meros muhofazasi.....	332
U.N.Olimov	
Arab tarixshunosligida XIX asr oxirida Markaziy Osiyodagi siyosiy jarayonlar va Rossiya imperiyasi bosqinining o'rganilishi	336
M.Q.Tolibboyev	
O'zbekiston hududida mahallaga xos ilk belgilarning paydo bo'lishi va boshqaruv an'analarga doir mulohazalar	340
X.S.Jumanazarov	
Xalq tabobatida davolash usullarining mintaqaviy xususiyatlari.....	346
Sh.N.Jo'rayev	
Sulton Husayn Boyqaro davrida diniy ulamolarning o'rni.....	351
O.M.Normatov	
O'zbekistonda o'tkazilgan rayonlashtirish natijalari.....	356
D.G'.Mirzayev	
"Turkiston viloyatining gazetasi" da Qo'qon xonligining bosib olinishiga oid ma'lumotlar tahlili	361
A.O.Toirov	
Anushteginiylar sulolasi davrida ijtimoiy hayot.....	369
P.A.Nabiyev	
"Farg'ona vodiysi tojiklarining farzand tug'ilishi va to'y marosimlari bilan bog'liq bo'lgan urf-odat va an'analari (Qorategin tojiklari misolida)"	373
A.A.Mamadjanov	
Muhammad Vafo Karmanagiy – Buxoro amirligi tarixchilik maktabining ilk vakili	378
P.A.Арслонзода	
Тасвири макотиб ва мадориси аморати бухоро дар "Ёддоштҳо"-и Садриддин Айни	382

ADABIYOTSHUNOSLIK

A.A.Kasimov, Sh.G'.Akbarova	
Badiiy retsepsiyaning nazariy asoslariga doir.....	389
Z.J.Pardayeva	
Dostoevskiy, Baxtin, Polifonik roman	393
H.Jo'rayev	
Totem tushunchalarning ijtimoiy tafakkur tarixidagi o'rni.....	401
K.A.Jamahmatov	
Adabiy manbalarda Arshiy Termiziyning hayoti va ijodiy faoliyatining tadqiqi	404
X.Jo'rayev, M.Ismoilova	
Ijtimoiy tafakkurning majoziy ifodasi	410
I.I.Rustamova	
Dramada sahnada ko'rinmaydigan qahramon va uning badiiy talqini	413
M.A.Jo'rayeva	
Jadid adabiyotida safarnoma janri va uning taraqqiyoti	417
M.Islomova	
Taqlid va Tasvir	421
D.G'.Gafurova, A.A.Qayumov	
Isajon Sulton hikoyalarda shamol timsoli.....	424
X.T.Мирзаев	
Талқини рукнҳои арӯзӣ дар рисолаи "Меъроҷ-ул-арӯз"-и Муҳаммад Фиёсиддин	428
N.Q.Bo'riyeva	
J.R.R.Tolkinning "Uzuklar hukmdori" asarida yaxshilik kontsepti.....	433
M.Sh.Dehqonova	
Mustaqillik davri dramaturgiyasi va adabiy tanqid.....	440
G.A.Mashrapova	
Ertak syujet tiplarida qidiruvga qarshi safar (antiqidiruv) motivi turlari.....	445
Q.V.Yo'lchiyev	
Abdulla Sherning "Ikki ayol haqida qo'shiq" she'ri tahlili	449
B.N.Isakova	
Adabiyotda badiiy va mushtarak tarjimaning ahamiyati	456



UO‘K: 93085

O‘ZBEKISTONDA NOMODDIY MADANIY MEROS MUHOFAZASI

ОХРАНА НЕМАТЕРИАЛЬНОГО КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

PROTECTION OF INTANGIBLE CULTURAL HERITAGE IN UZBEKISTAN

Axmedov Jasurbek Zokirjonovich

Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti Etnofolklor laboratoriya bo‘limi mudiri tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida nomoddiy madaniy merosga bo‘lgan munosabat hamda uni asrab avaylash va targ‘ib etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar tahlil etilgan. Xususan, YUNESKOning nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan va kiritilishi rejalashtirilgan elementlar hamda ularni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish, targ‘ib qilishni yanada rivojlantirish masalalari yoritilgan.

Аннотация

В данной статье анализируется отношение к нематериальному культурному наследию и проводимая работа по его сохранению и популяризации в Республике Узбекистан. В частности, освещены элементы, включенные и планируемые к включению в список нематериального культурного наследия ЮНЕСКО, а также вопросы дальнейшего развития их охраны, научного изучения и популяризации.

Abstract

This article analyzes the attitude towards intangible cultural heritage and the work being carried out to preserve and popularize it in the Republic of Uzbekistan. In particular, the elements included and planned for inclusion in the UNESCO list of intangible cultural heritage are highlighted, as well as issues of further development of their protection, scientific study and popularization.

Kalit so‘zlar: nomoddiy madaniy meros, madaniyat, targ‘ibot, milliy ma‘naviyat, an‘ana, qadriyat.

Ключевые слова: нематериальное культурное наследие, культура, пропаганда, национальная духовность, традиция, ценности.

Key words: intangible cultural heritage, culture, propaganda, national spirituality, tradition, values.

KIRISH

Nomoddiy madaniy meros–bu madaniy faoliyatning an‘anaviy shakllari va uning a‘zolari orasida o‘zlik va davomiylik hissini shakllantiruvchi inson jamoasining vakolatlari majmuidir. Globallashuv va ommaviy madaniyat sharoitida nomoddiy madaniy merosning tezda yo‘qolib ketishi xalqaro hamjamiyatni uni saqlab qolish masalasini hal qilishga majbur etdi. An‘anaviy nomoddiy qadriyatlar avloddan-avlodga, shaxsdan-shaxsga o‘tib, institutlashgan shakllarni chetlab o‘tadi, ular inson jamoasi tomonidan doimiy ravishda qayta tiklanishi kerak; merosning bu usuli ularni ayniqsa nozik va zaif qiladi. Xorij amaliyotida “nomaterial” (“non-material”) atamasi bilan bir qatorda “nomoddiy” (“intangible”) atamasi ham tez-tez qo‘llanilib, predmet shaklida moddiylikmagan obyektlar haqida gapirayotganimizni ta’kidlaydi.

“Nomoddiy madaniy meros” tushunchasi urf-odatlarini, o‘ziga xoslikni ifodalash shakllari, bilimlar va ko‘nikmalarni, shuningdek, ular bilan bog‘liq jihozlar, predmetlar, artefaktlar va madaniy makonlarni aks ettiradi, ular esa o‘z navbatida hamjamiyatlar, guruhlar tomonidan, alohida holatlarda esa muayyan shaxs madaniy merosining bir qismi sifatida tan olinganligini anglatadi. Avloddan avlodga o‘tib kelayotgan bunday nomoddiy madaniy meros doimo muayyan hamjamiyatlar va guruhlar tomonidan ularning atrof-muhitga, tabiatga va o‘z tarixiga bog‘liq holda yaratiladi va bu ularda o‘ziga xoslikni, vorislik tuyg‘usini shakllantiradi hamda shu bilan insoniyat ijodini va madaniy turli-tumanlikning hurmat qilinishiga ko‘maklashadi[1].

TARIX

ADABIYOTLAR TAHLILI VA USULLARI

O'zbekistonda nomoddiy madaniy merosi bo'yicha (o'zlikni namoyon etishning og'zaki an'analari va shakllari) T.Mirzayev, O.Safarov, D.O'rayeva, I.T.Yormatov, M.Jo'rayev, K.N.Qodirov, B.M.Suvankulov, Z.I.Usmonova, Z.Xolmanova, (ijrochilik san'ati) N.K.Kasimov, R.H.Nosirov, Sh.Galiev, S.H.Ollaberganova, O.Ibrohimov, Q.B.Panjiyev, M.X.Qodirov, U.X.Qoraboev, B.A.Shodiev, I.R.Abdurahmanov, (jamiyatning urf-odat, marosim va bayramlar) A.Ashirov, G'.Soatov, O.O.Ismonova, M.S.Pirmatova, M.Sattarov, (tabiat va koinot bilan bog'liq bilimlar) I.Jabbarov, K.Mahmudov, M.B.Qurbonov, (an'anaviy hunarmandchilik bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar) A.A.Xakimov, E.Gyul, O.A.Xo'janioyozova, S.Sh.Aliyeva, K.B.Akilova, Q.J.Jumayevlar tadqiqotlar olib borishgan.

XX asrning so'nggi yillarida nomoddiy meros obyektlarining taqdiri jahon diqqat markazida bo'ldi. Inson o'z-o'zini identifikatsiya qilish uchun madaniyatning ko'plab muhim shakllarini butunlay yo'q qilish xavfi ushbu muammoni yirik xalqaro forumlarda muhokama qilishni va bir qator xalqaro hujjatlarni ishlab chiqishni talab qildi. Nomoddiy madaniy meros tushunchasi 1990-yillarda moddiy madaniyatga qaratilgan jahon merosi ro'yxatiga yondoshuv sifatida ishlab chiqilgan. 2001-yilda YUNESKO ta'rifni ishlab chiqish uchun davlatlar va nodavlat tashkilotlar o'rtasida so'rov o'tkazdi. 2003-yilda nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish Konvensiyasi qabul qilindi[2, 15]. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish Konvensiyasi nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishning huquqiy asoslarini ta'minlovchi birinchi xalqaro hujjat hisoblanadi. O'zbekiston ushbu Konvensiyani 2007-yil 12-dekabrda ratifikatsiya qildi[3].

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Parijda YUNESKO Bosh qarorgohida bo'lib o'tgan "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risida"gi konvensiyaga a'zo bo'lgan davlatlar Bosh assambleyasining 9-sessiyasida O'zbekiston Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha hukumatlararo qo'mitaga 4 yilga (2022-2026) a'zolikka saylandi.

Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha hukumatlararo qo'mitaning asosiy vazifalari Konvensiya maqsadlarini ilgari surish, ilg'or tajribalar bo'yicha yo'l-yo'riq ko'rsatish va nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish chora-tadbirlari bo'yicha tavsiyalar berishdan iborat.

Qo'mita ishtirokchi davlatlar tomonidan nomoddiy merosni ro'yxatga kiritish to'g'risidagi so'rovlarni, shuningdek, dasturlar va loyihalar bo'yicha takliflarni ko'rib chiqadi. Qo'mita xalqaro yordam ko'rsatishga ham mas'uldir. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha hukumatlararo qo'mita Konvensiyani amalga oshirishga tayyorgarlik ko'radi, asosan, operativ ko'rsatmalar to'plamini va Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish jamg'armasi mablag'laridan foydalanish rejasini ishlab chiqish Konvensiyaning 25-moddasida belgilangan. U ushbu hujjatlarni Bosh Assambleyaga tasdiqlash uchun taqdim etadi.

Quyidagi nomoddiy madaniy meros ob'ektlari ro'yxatga olish obyektlari hisoblanadi:

o'zlikni namoyon qilishning og'zaki shakl va an'analari (shu jumladan, til – nomoddiy madaniy merosni ifodalash faktori sifatida);

ijrochilik san'ati;

jamiyatning urf-odat, marosim va bayramlari;

tabiat va koinot bilan bog'liq bilim va urf-odatlar;

an'anaviy hunarmandchilik bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar;

nomoddiy madaniy merosni namoyon etish bilan bog'liq jihozlar, predmetlar, artefaktlar va madaniy makonlar[4, 96].

Shuningdek, O'zbekistonda nomoddiy madaniy merosning 4 ta alohida ro'yxati yuritiladi.

Bular:

1. Zudlik bilan muhofaza ostiga olinishi lozim bo'lgan nomoddiy madaniy meros ro'yxati.

2. Nomoddiy madaniy merosning Reprezentativ ro'yxatiga kiritish uchun tavsiya etiladigan nomzodlar ro'yxati.

3. Nomoddiy madaniy merosning milliy ro'yxati.

4. Nomoddiy madaniy merosning mahalliy ro'yxati[5, 7].

Hozirgi kunga qadar YUNESKO konvensiyasiga 180-ta davlat a'zo bo'lgan. O'zbekiston Respublikasi ushbu konvensiyaga 2008-yilda qo'shilgan.

Konvensiya doirasidagi YUNESKO insoniyatning nomoddiy madaniy merosi representativ ro'yxatiga "Boysun tumanining madaniy makoni" (Milliy nomzodnoma, 2008-yil), "Shashmaqom" (ko'pmillatli nomzodnoma, 2008-yil – O'zbekiston va Tojikiston), "Katta Ashula" (Milliy nomzodnoma, 2009-yil), "Askiya" (Milliy nomzodnoma, 2014-yil), "Palov madaniyati va an'analari" (Milliy nomzodnoma, 2016-yil), "Navro'z" (ko'pmillatli nomzodnoma, 12 davlat, 2009, 2016-yil), "Xorazm raqsi – Lazgi" (Milliy nomzodnoma, 2019-yil), "Miniatyura san'ati" (ko'pmillatli nomzodnoma – Ozarbayjon, Eron, Turkiya va O'zbekiston, 2020-yil), "Baxshi san'ati" (Milliy nomzodnoma, 2021-yil), "Ipakchilik va to'quv uchun an'anaviy ipak ishlab chiqarish" (ko'pmillatli nomzodnoma – O'zbekiston, Ozarbayjon, Afg'oniston, Eron, Tojikiston, Turkmaniston, Turkiya, 2022-yil), "Xo'ja Nasriddin haqidagi latifalarni takrorlash an'analari" (ko'pmillatli nomzodnoma – O'zbekiston, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Turkiya, 2022-yil), "O'zbekiston kulolchilik maktablari" (Milliy nomzodnoma, 2023-yil), "Naqqoshlik – tazhib bezak san'ati" (Milliy nomzodnoma, 2023-yil), "Iftorlik va uning ijtimoiy-madaniy an'analari" (Milliy nomzodnoma, 2023-yil), kiritilgan.

Bundan tashqari 2018-yilda Marg'ilon hunarmandchilik maktabi atlas va adras to'qish texnologiyasi YUNESKOning Nomoddiy madaniy meros muhofazasi bo'yicha eng yaxshi tajribalar reestriga kiritilgan[6].

Insoniyat nomoddiy madaniy merosining representativ ro'yxatiga: "Markaziy Osiyo an'anaviy kashtachiligi", "O'zbekiston zardo'zlik maktablari san'ati", "O'zbekiston zargarlik san'ati", "O'zbekiston do'ppido'zlik maktablari san'ati", "O'zbek an'anaviy kandakorlik san'ati", "O'zbekiston gilamdo'zlik an'analari", "Beshik yasash va u bilan bog'liq an'analari", "O'zbek nonlari", "Qorabayir otlarini parvarish qilishga oid an'analari", "Alpomish" dostoni "Ko'pkari", "O'tov yasash an'analari", "Chavgon" o'yini, "O'zbekiston pichoqchilik san'ati", "Choy ichish bilan bog'liq urf-odatlar", "O'zbek kurash san'ati", "Tanovar" kabilarni taqdim etish rejalashtirilmoqda.

O'zbekistonda nomoddiy madaniy meros bilan bog'liq masalalarga davlat darajasida katta e'tibor qaratilgan va bu sohada munosabatlar bir qator qonun hujjatlari bilan tartibga solib turiladi. Xususan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilab qo'yilgan maqsadlar orasida nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va ommalashtirish bilan bog'liq faoliyatni takomillashtirish borasida alohida vazifalar belgilangan.

Jumladan, maqom, baxshichilik, raqs va teatr yo'nalishlarida kamida 10 ta xalqaro festival va anjumanlar o'tkazish, kamida 3 ta noyob nomoddiy madaniy meros namunasini YUNESKOning xalqaro ro'yxatlariga kiritishga erishish, 30 tadan ortiq nomoddiy madaniy meros elementini chuqur ilmiy tadqiq etish vazifalari belgilangan[7].

Har bitta xalqning nomoddiy madaniy merosi shu xalqning o'zligini ifodalaydi va u albatta hurmat qilinishi kerak. Nomoddiy madaniy merosning muhofaza qilinishi, saqlanishi va kelgusi avlodlarga yetkazilishi barqaror taraqqiyotga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Chunki biror xalqning nomoddiy madaniy merosida barqaror taraqqiyotga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omil yo'q va bu meros to'raligicha barqaror taraqqiyotga xizmat qiladi[8, 11].

Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ 405-son Qarori muhim ahamiyatga ega[9].

Mazkur qarorga asosan quyidagilar ustuvor yo'nalishlar etib belgilandi:

- nomoddiy madaniy merosni har tomonlama muhofaza qilish, keng jamoatchilikni jalb etgan holda uning namunalarini aniqlash, ro'yxatlarga kiritish, raqamlashtirish, targ'ib qilish va saqlash;

- maqom va baxshichilik san'atini muhofaza qilish, ilmiy o'rganish, targ'ib qilishni yanada rivojlantirish;

- nomoddiy madaniy merosning noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan namunalarining, shuningdek, merosni muhofaza qilish bo'yicha ilg'or tajribalarning Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiya doirasida xalqaro ro'yxatlarga kiritilishiga erishish;

TARIX

- nomoddiy madaniy merosni doimiy ravishda o'rganishni yo'lga qo'yish maqsadida respublika va xalqaro miqyosda etnofolklor ekspeditsiyalari tashkil qilish, ilmiy-tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlash, fundamental va maqsadli grantlar ajratilishini ta'minlash;

- nomoddiy madaniy meros ta'limning barcha bosqichlarida o'rganilishini tashkil etish hamda soha uchun malakali kadrlar tayyorlash.

Shuningdek, qarorda nomoddiy madaniy meros namunalarini «tayyorlash - o'rgatish - tiklash - saqlash - ommalashtirish» yaxlit uzluksiz tizim tajribasini ommalashtirish masalasi ham belgilangan.

Mazkur qarorga muvofiq nomoddiy madaniy merosni ilmiy-amaliy asosda kompleks rivojlantirish maqsadida Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etilib, "Madaniyatshunoslik", "Etnofolklor laboratoriya", "Nomoddiy madaniy merosni ilmiy-tadqiq etish", "Havaskorlik san'ati bilan ishlash" kabi ilmiy bo'limlar faoliyati yo'lga qo'yildi.

Bugungi kunda institut tomonidan nomoddiy madaniy meros saqlash va targ'ib qilish ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "ichLinks" nomli xalqaro dasturni yo'lga qo'yish bo'yicha faoliyat alohida o'rin tutadi. Dasturning asosiy mohiyati turli davlatlardagi nomoddiy madaniy meros bo'yicha keng qamrovli ma'lumot joylanishi ko'zda tutilgan onlayn platforma yaratish va uni yuritib borish bilan bog'liq chora-tadbirlardan iborat. Bu anchagina salmoqli va chinakamiga davlatlararo dastur bo'lib, YUNESKONing Nomoddiy madaniy meros bo'yicha Osiyo-Tinch okeani mintaqasi xalqaro axborot va tarmoqlashuv markazi rahbarligida amalga oshiriladi[10, 100].

XULOSA

Shu bugunga kelib mazkur dastur Kambodja, Hindiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Malayziya, Mo'g'uliston, Singapur, Tojikiston, Sharqiy Timor, Vetnam, O'zbekiston kabi davlatlarda faoliyat olib boradigan maslakdosh hamkasblarni birlashtiradigan ajoyib o'ziga xos bir tarmoqqa aylanmoqda. Mazkur dastur loyihasi doirasida viloyatlarga folklor etnografik ekspeditsiyalar uyushtirilib, ijtimoiy so'rovlar o'tkazilib, nomoddiy madaniy merosni saqlash, arxivlashtirish, ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro Konvensiya. 2-modda. – Parij. 2003.
2. Международная конвенция об охране нематериального культурного наследия. – Париж, 17 октября 2003 г. MISC/2003/CLT/CH/14. – С. 15.
3. <https://lex.uz/docs/1282807?twolang=1>
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 23-fevraldagi "Nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 47-son qaroriga 1-ilova. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011-yil. 96-bet.
5. Ўзбекистон номоддий маданий мероси. 2017. 7-бет.
6. <https://uzbektourism.uz/news/view?id=2281>
7. <https://lex.uz/docs/6600413>
8. Toshmatov O.G., Isakulova N.J. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishning huquqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2014. – B. 11.
9. <https://lex.uz/docs/6713096>
10. Axmedov J. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishga doir mulohazalar // "O'zbekistonda nomoddiy madaniy meros muhofazasi va targ'iboti" Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Toshkent, 2024. 97-101-bet.